TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2021 йил «22» октябрь 166-14-220-Q/21 Янгихаёт туман хокимлиги

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining 2022-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazining 2021-yil 8-sentabrdagi 26/13-01/07-415-sonli xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga;

2022-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 17-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori 2-ilovaga muvofiq xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni 674 nafarni tashkil etadigan, shu jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 20 ta (3.0 %);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 403 ta (59.8 %);

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolalari ota-onalar uchun 158 ta (23.5 %);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 59 ta (8.7 %);

safarbarlik chaqiruvi sida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 17 ta (2.5 %);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 15 ta (2.2 %);

odam savdosi qurbonlari uchun 2 ta (0.3 %) ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolalari ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4. Ish o‘rinlarini band qiluvchi korxona va tashkilotlar rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va ga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlansin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2021-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foiziga qo‘yilishi va tayyorligi ta’minlansin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Bandlikka ko‘maklashish markazini xabardor qilsin;

muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu

haqda tuman Bandlikka ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Bandlikka ko‘maklashish markaziga Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va ga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsin;

tashkilot tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

5. Tuman hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

6. Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (Ch.Azimov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarning e’tiboriga yetkazsin va us’hbu qaror bajarilis’hi ustidan nazoratni ta’minlasin.

7. Ushbu qaror 2022-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

Yangihayot tumani hokimi **X.Inogamov**

Янгихаёт туман ҳокимининг
2021 йил 22 октябрдаги
166-14-220-Q/21-сон қарорига
1-илова

Yangihayot tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, is’h topis’hda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng s’hartlarda raqobatlas’ha olmaydigan s’haxslarni is’hga joylas’htiris’h uchun 2022 yilga mo’ljallangan band qilinis’hi kerak bo’lgan is’h o’rinlari sonini va ularga qo’yiladigan talablarni belgilas’h bo’yicha maxsus komissiya tarkibi

1.	X.Tas’hpulatov	-	tuman hokimining birinchi o’rinbosari, ***maxsus komissiya raisi***

Maxsus komissiya a’zolari:

2.	M.Raimov	-	tuman IIOFMB bos’hlig‘i
3.	Ch.Azimov	-	tuman Aholi bandligiga ko’maklas’his’h markazi direktori
4.	A.Maxmudov	-	tuman Moliya bo’limi bos’hlig‘i
5.	M.Kochkarov	-	tuman budjetdan tas’hqari Pensiya jamg‘armasi bo’limi bos’hlig‘i
6.	Ye.Umurzoqov	-	tuman Mudofa is’hlari bo’limi bos’hlig‘i
7.	G.Begimqulova	-	tuman ijtimoiy moslas’his’h markazi rahbari

***

Янгихаёт туман ҳокимининг
2021 йил 22 октябрдаги
166-14-220-Q/21-сон қарорига
2-илова

Yangihayot tumani 2022-yil uchun “kvota” Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va mehnat bozorida teng s’hartlarda raqobatlas’ha olmaydigan s’haxslarni is’hga joylas’htiris’h is’h o‘rinlarining yeng kam sonini belgilas’h va zahiraga qo‘yis’h bo‘yicha

MA’LUMOT

№	Korxona nomi	Xodimlar soni	Hokimiyat tomonidan yaratilgan mahsus is’h joylari	Korxonada xaqiqatan yaratilgan maxsus is’h o‘rinlari	Nogironlar uchun	Ko’p bolali ota-onalar uchun	O’quv yurtini bitiruvchilar uchun	Pensiya yos’higa yetib qo;ganlar uchun	Qo’s’hin safidan qaytganlar uchun	Jazo muddatini o’tab qaytganlar uchun	Odam savdosi jabrlanuvchiilari
1	Yangihayot tumani maktabgacha ta'lim bo'limi	37	1				1				
2	Yangihayot tumani 41-MTT	36	1			1					
3	Yangihayot tumani 44-MTT	69	4			1	2	1			
4	Yangihayot tumani 45-MTT	30	1			1					
5	Yangihayot tumani 109-MTT	35	1			1					
6	Yangihayot tumani 121-MTT	57	3			1	2				
7	Yangihayot tumani 305-MTT	59	3			1	1	1			
8	Yangihayot tumani 351-MTT	24	1			1					
9	Yangihayot tumani 352-MTT	25	1				1				
10	Yangihayot tumani 353-MTT	25	1			1					
11	Yangihayot tumani 354-MTT	25	1			1					
12	Yangihayot tumani 355-MTT	24	1				1				

13	Yangihayot tumani 356-MTT	24	1			1					
14	Yangihayot tumani 459-MTT	58	3			1	1	1			
15	Yangihayot tumani 508-MTT	41	2				1	1			
16	Yangihayot tumani 566-MTT	70	4			1	2	1			
17	Yangihayot tumani 581-MTT	54	2			1	1				
18	Yangihayot tumani 584-MTT	37	1				1				
19	Yangihayot tumani xalq ta'lim bo'limi	30	1			1					
20	2-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	30	1			1					
21	3-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	35	1			1					
22	8-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	36	1				1				
23	32-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	28	1			1					
24	40-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	134	11			3	6	2			
25	285-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	37	1			1					
26	303-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	29	1				1				
27	304-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	22	1			1					
28	329-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	1				1				
29	330-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	37	1			1					
30	331-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	1					1			

31	yangihayot tumani tibbiyot birlas’hmasi	580	50		4	13	23	7	1	1	1
32	yangihayot tumani sanitariya-yepidemiologik osoyis’htalik va jamoat salomatligi xizmati	42	3			1	2				
33	tos’hkent s’hahar teri-tanosil kasalliklari dispanseri	190	15		1	6	7	1			
34	1-son akus’herlik majmuasi	387	31		2	8	17	4			
35	tos’hkent s’hahar majburiy davolas’h narkologiya s’hifoxonasi	55	2			1	1				
36	ruhiy kasalliklar klinik s’hifoxonasi	305	27		2	6	15	4			
37	yangihayot tumani obodonlas’htiris’h bos’hqarmasi	141	14			1				12	1
38	4-avtobus saroyi	437	35		1	5	24	2	3		
39	12-avtobus saroyi	516	35		1	8	21	3	2		
40	"Yangihayot tuman madaniyat markazi"	33	1				1				
41	"Green zone of world" mas’uliyati cheklangan jamiyat	527	45			16	24	4	1		
42	"Health line" mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’s’hma korxona	420	35		3	7	20	4	1		
43	"Granite industries technology" mas’uliyati cheklangan jamiyat	340	27			5	19	3			

44	"Tos’hkent s’hahar sog'liqni saqlas’h tibbiy ko'rik" mas’uliyati cheklangan jamiyat	145	12			3	7	2			
45	"Mays blue fas’hion" mas’uliyati cheklangan jamiyat	126	10			2	7	1			
46	"Madena collection" mas’uliyati cheklangan jamiyat	105	7			1	6				
47	"Smile lux " mas’uliyati cheklangan jamiyat	97	6			1	5				
48	"Humo air" mas’uliyati cheklangan jamiyat	95	6			1	5				
49	"Sputnik taksi servis" mas’uliyati cheklangan jamiyat	91	6			1	5				
50	"Westing tas’hkent" mas’uliyati cheklangan jamiyat	83	6				6				
51	"Sifco international" mas’uliyati cheklangan jamiyat	77	5			1	4				
52	"Silver vita" mas’uliyati cheklangan jamiyat	75	5				5				
53	"Yelegant ingenering sistems" mas’uliyati cheklangan jamiyat	66	4			1	3				
54	"Azia-meet" mas’uliyati cheklangan jamiyati qo’s’hma korxona	65	4				4				

55	"Fortune gaz service" mas’uliyati cheklangan jamiyat	62	4				4				
56	"Delight-neo" mas’uliyati cheklangan jamiyat	60	4			1	3				
57	"Trust union" xususiy korxonasi	58	3				3				
58	"New times buildings" mas’uliyati cheklangan jamiyat	50	3				3				
59	"Faxriddin doktor" mas’uliyati cheklangan jamiyat	49	2			1	1				
60	"First dry port terminal" mas’uliyati cheklangan jamiyat	49	2				2				
61	"Ales poliizol" mas’uliyati cheklangan jamiyat	41	2			1	1				
62	"Big trip service" mas’uliyati cheklangan jamiyat	40	2				2				
63	"Rose diamond" xususiy korxonasi	40	2			1	1				
64	"S’harq binokor mexanizatsiya" mas’uliyati cheklangan jamiyat	38	1				1				
65	“Madad tijorat” mas’uliyati cheklangan jamiyat	36	1				1				
66	"Nilpak" mas’uliyati cheklangan jamiyat	34	1				1				

67	"Vita stimul grand" mas’uliyati cheklangan jamiyat	33	1			1					
68	Miriada	31	1				1				
69	"Trust prof montaj" mas’uliyati cheklangan jamiyat	29	1				1				
70	"Svs-binokor" mas’uliyati cheklangan jamiyat	29	1				1				
71	"Trans tex butlas’h" mas’uliyati cheklangan jamiyat	28	1			1					
72	Clean chemicals	25	1				1				
73	"New line distributions" mas’uliyati cheklangan jamiyat	23	1				1				
74	13-son ko'prik qurilis’h	1453	135		6	34	71	13	9	2	
75	"Sun tex" mas'uliyati cheklangan jamiyat	130	7			1	6				
76	“Bektemir metall konstruksiyalari” mas'uliyati cheklangan jamiyat	357	31			3	26	2			
77	"Artikul aziya kabel" mchj s’haklidagi qo's’hma korxona	266	22			3	18	1			
JAMI:		**6007**	**674**		**20**	**158**	**403**	**59**	**17**	**15**	**2**

***